

SUN'IY INTELLEKT VA XALQARO TIJORAT NIZOLARINI HAL QILISHNING KELAJAGI

Olimova Shahzoda Jamshid qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik"
fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt va xalqaro tijorat nizolarini hal qilish bo'yicha bir qancha fikrlar tahlil qilingan. Mavjud prinsipning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan. Xorijiy tajriba o'rganilib, bir qancha tajribalar solishtirib berildi. Shu bilan birga, xalqaro tijorat nizolarini hal qilishning kelajagi masalasi tahlil qilinib, bir qancha jihatlari ochib berildi.*

Mavzuni muhokama qilish jarayonida faqatgina yutuq va kamchiliklar to'g'risida fikr yuritilmasdan, davlatlarning kelajakdagi maqsadlari va rejalariga xalqaro arbitrajining ta'siri qay darajada ekanligi ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, Xalqaro tijorat arbitraji, tijorat nizolari, mediatsiya*

Аннотация: *Вданной статье анализируются несколько идей об искусственном интеллекте и разрешении международных торговых споров. Анализируются положительные и отрицательные стороны существующего принципа. Были изучены зарубежный опыт и сравнен ряд опытов. При этом был проанализирован вопрос будущего разрешения международных и коммерческих споров и выявлено несколько аспектов. В ходе обсуждения темы обсуждались не только достижения и недостатки, но и анализировалось влияние международного арбитража на будущие цели и планы государств.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, международный коммерческий арбитраж, коммерческие споры, медиация.*

Abstract: *This article analyzes several points of view on artificial intelligence and international trade dispute resolution. The positive and negative aspects of the existing principle are analyzed. Foreign experience was studied and a number of experiences were compared. At the same time, the issue of the future of international commercial dispute resolution was analyzed and several aspects were revealed.*

During the discussion of the topic, not only the achievements and shortcomings were discussed, but also the impact of international arbitration on the future goals and plans of the states was analyzed.

Key words: *Artificial intelligence, international commercial arbitration, commercial disputes, mediation*

KIRISH

Avvalambor, sun'iy intellekt o'zi nima ekanligi va uning jamiyatimizdagi o'rni haqida to'xtalamiz. Demak, sun'iy intellekt (SI) deganda, insonning mantiqiy va ijodiy

funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Garchi "intellekt" tushunchasini ta'riflash murakkabroq bo'lsa-da, lug'atlarda keltirilgan ta'riflarning xilma-xilligiga ko'zimiz tushadi. Masalan, unga berilgan ta'riflar quyidagicha, "anglash qobiliyati", "yangi vaziyatlarga moslasha olish", "qaror qabul qila olish qobiliyati" kabi ta'riflar mavjud. Ilmiy atama sifatida 1956-yili Stenford universitetida ilmiy anjuman doirasida "artificial intelligence" nomi ostida taklif qilingan edi. Sun'iy intellekt to'g'risidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan buyon davom etib kelmoqda, lekin bu soha vakillari hali ma'lum to'xtamga kelganlari yo'q. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, sun'iy intellekt algoritmlari ko'pincha real vaqtda ma'lumotlardan foydalangan holda qaror qabul qilish uchun mo'ljallangan. Ular faqat mexanik yoki oldindan belgilangan javoblarga qodir bo'lgan passiv mashinalardan farq qiladi. Datchiklar, raqamli ma'lumotlar yoki masofaviy kirishlar yordamida ular turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtiradi, materialni bir zumda tahlil qiladi va ushbu ma'lumotlardan olingan tushunchalarga amal qiladi. Saqlash tizimlari, ishlov berish tezligi va analitik texnikaning katta yaxshilanishi bilan ular tahlil va qaror qabul qilishda juda murakkablikka qodir. Hozirgi kunga kelib ba'zi davlatlarda robot hamshiralar, o'zi yurar avtomabillar, turli xil xizmatlarga mo'ljallangan dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Olimlar imkon qadar ularni inson qiyofasiga o'xshatishga harkat qilishmoqda.

Ko'rib turganingizdek sun'iy intellektning hayotimizdagi o'rni kundan kunga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt foydasi yoki zarari? Kabi savollarga turli xil javoblar berishmoqda. Mening fikrimcha esa, bu bahs-munozaralar hali uzoq davom etadi. So'nggi yillarda yurtimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, sohani jahon talablari darajasida rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan harakatlar jadallashmoqda. Jumladan, faoliyati kengayib borayotgan "IT park"lar, "Bir million dasturchi", "Yoshlar texnoparklari" mazkur sohaning barqaror rivojiga juda katta umid uyg'otadi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Kanada kabi 30 dan ortiq davlatlarda sun'iy intellektning rivojlantirish strategiyalari qabul qilingan. Robotlarni yaratishda insoniyatga xavf tug'dirmaslik yo'llarini o'ylab qo'yish ham zarari emas.

Zamon va inson muammosi doimiy izlanish, rivojlanish va raqobatni talab etadigan tushunchalar sirasiga aylanib bo'lganligi hech kimga sir emas. Texnika taraqqiyotining zamonaviylashuvi, inson hayot tajribasining naqadar xilma-xil imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon qiladi va shu bilan birga eng qiziq o'rganilgan, o'rganilayotgan va eskini unutib yangiga moslashish qobiliyatini talab etadigan

ko`rinmas bir kuch misoli namoyon bo`ladi. Insonning hayot darajasini onsonlashtirishga qaratilgan sa`yi-harakatlar o`z mevasini berayotganligining guvohiga aylanayotganligimiz informatsion jamiyatning yaqqol misoli hisoblanadi. Uzoq davrlar mobaynida insoniyat eng aqlli, zehni o`tkir yagona mavjudot ekanligi to`g`risida ilmiy-falsafiy munozaralar yuritib kelingan. Intellect tushunchasiga – insoningagina xos bo`lgan oliy tushuncha sifatida qaraldi. XX asrga kelib uzoq yillar mobaynida faylasuflarda mavjud bo`lgan tushunchalarga, insonning o`z qo`li bilan yasaotgan intellektual mashinalarning o`ylab topilishi asosida ma`lum jihatda yangilik kiritildi. Xalqaro tijorat nizolari va ularni hal qilish kelajagi haqida to`xtaladigan bo`lsak, xalqaro tijorat sohasida nizolar kelib chiqadigan bo`lsa, tomonlar nizoni hal qilish usullarini ikki tomonlama bitimlarda (BIT) ko`rsatib o`tadi. Niozlarni hal qilishning muqobil yechimlarini (dispute of resolutions) tomonlarning kelishuvida aks etadi. Tomonlar tijorat sohasidagi nizoni hal qilish uchun mediatsiya qilishi, arbitrajga murojaat qilishi yoki davlat sudlariga murojaat qilishlari mumkin. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda Niozlarni muqobil hal etishda mediatsiya va hakamlik sudidan keng foydalanilmoqda. Mediatsiya –bu taraflarni xolisga murojaat qilgan holda nizoni hal etishdir. Huquqiy nizolarni hal etishning o`ziga xos shakli sifatida mediatsiya so`nggi yillarda nizolarni samarali va tejamkor hal etish imkoniyatlari tufayli sezilarli o`rin egalladi. Mediatsiya dunyoning ko`plab mamlakatlarida keng qo`llanilgan bo`lsada, O`zbekistonda uning mashhurligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Niozlarni hal etishning ushbu muqobil usulining potentsial afzalliklarini e`tirof etgan holda, O`zbekiston undan o`z qonunchiligi doirasida foydalanishni rag`batlantirish bo`yicha muhim qadamlar qo`ydi. Yurtimizda ushbu sohani tartibga soluvchi asosiy qonunimiz mavjud.

Ushbu qonunning amal qilishi:

- fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga;

- yakka mehnat nizolariga;

- oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo`llash bilan bog`liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, tatbiq etiladi. Ta`kidlash lozimki, ushbu qonunning amal qilishi mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamoat manfaatlariga daxl qiladigan yoki daxl qilishi mumkin bo`lgan nizolarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Qonunda mediatsiya, mediator, mediativ kelishuv, mediatsiya tartibtaomilini amalga oshirish to`g`risidagi kelishuv, mediatsiyani qo`llash to`g`risidagi kelishuv kabi asosiy tushunchalar ochib berilgan. Qonunga muvofiq mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Unda belgilanishicha jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mediatsiya taraflari bo`lishi mumkin. Taraflar mediatsiyada shaxsan yoki o`z vakili orqali qonun

hujjatlariga muvofiq ishtirok etadi. Guvohi bo'lganimizdek, mediatsiyaning maqsadi– nizo ishtirokchilarining o'z kelishmovchiliklarini mustaqil hal qilish layoqatiga, o'zaro talablarini qondirishga va har ikki taraf uchun baravar foydali bo'lgan kelishuvga erishishlariga ko'maklashishdan iboratdir. Shu boisdan O'zbekistonda ham mediatsiya sohasini rivojlantirishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2018-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasida mediatsiya to'g'risidagi O'RQ-482 sonli qonunni qabul qilinishi bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kelib chiqadigan nizolarni davlat sudlarida hal qilish masalasini ham tahlil qilamiz. Amerikalik mediator, arbitr Artur Mazirovning fikricha, tijorat bilan bog'liq nizoni davlat sudida hal qilish bir qancha imkoniyatlar yaratadi. Ulardan biri malakali sudya tomonidan nizo hal qilinadi. Ma'lumki, har bir davlatda sudya bo'lish uchun yosh doirasi va bir qancha bosqichlar belgilangan. Mana shu holat ham ishning sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Arbitrajda esa arbitrlar yetarli malakaga ega bo'lmasligi holatning yomon tomonga o'zgarib ketishiga olib keladi. Yana bir muhim jihatlaridan biri davlat sudi nizo yuzasidan kelib chiqadigan holatlar yuzasidan chet el davlat sudlariga topshiriqlar yuborish vakolatiga ega. Nizoni davlat sudlarida hal qilish tartibi va oqibatlari Bugungi kunda tijoratga oid munosabatlar jadallashmoqda va shu sababli tijorat bilan bog'liq bo'lgan nizolar ham yuzaga kelmoqda. Turli xil davlatlarda o'z tijoriy faoliyatini olib borayotgan shaxslar buzilgan huquqlarini himoya qilinishini xohlaydi. Davlatlar ham bu holatni anglagan holda o'z hududida xalqaro tijorat sudlarini tashkil etmoqda.

Bunday sudlar tashkil etilgan davlat sirasiga AQSh, Avstraliya, Xitoy kabi davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Har bir davlat o'z qonunchiligiga ko'ra xalqaro tijorat bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda o'ziga xos moddiy va protsessual normalarni joriy etadi. Va keyinchalik bu davlat sudlari tomonidan ijrosi bajariladi. AQSh davlatida chet ellik shaxs tijorat bilan bo'g'liq nizoga duch kelsa tomonlar o'rtasida shartnomada belgilangan sudga murojaat qilishi mumkin. Shartnomada davlat sudiga murojaat qilish yoki arbitrajga murojaat qilish belgilab o'tilishi mumkin. Agar AQShdagi xalqaro tijorat sudiga murojaat qilsa, sudga murojaat qilish tartibida arizasini taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasida xalqaro tijorat bilan bog'liq nizolarni hal qiluvchi xalqaro tijorat sudi mavjud emas, biroq Toshkent xalqaro arbitraj sudi mavjud bo'lib u institutsional arbitraj hisoblanadi.

Bundan tashqari nizolarni hal qilishning boshqa usullariniga kelsak, xalqaro nizolarni hal qilish uchun sud va arbitrajdan tashqari nizolarni hal qilishning boshqa usullari ham qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha majburiy bo'lmagan boshqa usullar ba'zan arbitraj bilan birlashtiriladi. Masalan, taraflar dastlab o'z nizolarini muzokaralar orqali hal qilishga urinib ko'rishga, va u muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda, mediatsiyaga murojaat qilishga kelishishlari mumkin. Agar bu ish bermasa, ular majburiy arbitrajga kirishadilar. Nizolarni hal qilishning boshqa mexanizmlari ba'zan

nizolarni muqobil hal qilish(ADR) atamasi bilan ataladi. Shunga qaramay, nizolarni muqobil hal qilish atamasi barcha uchun bir xil narsani anglatmaydi. Yevropada va dunyoning aksariyat qismida nizolarni muqobil hal qilish sud jarayonini ham, arbitrajni ham istisno qiladigan nizolarni hal qilish usullarini nazarda tutadi. Shuningdek, arbitraj bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish mexanizmlari mavjud va aynan shu mexanizmlar, xalqaro tijorat nizolarini hal qilishning kelajagida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular quyidagilar:

- Mediatsiya
- Murosaga keltirish
- Neytral baholash
- Ekspert xulosasi
- Kichik sud jarayonlari
- So'nggi taklif bo'yicha arbitraj (Beysbol arbitraji)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt hayotimizni tubdan o'zgartira olishiga mazkur mavzuni huquqiy tahlil qilgan holda guvoh bo'ldik. Bundan tashqari, xalqaro tijorat nizolarini hal qilishning turli usul va mexanizmlarini ko'rib chiqdik. Nizolarni hal qilishning har qanday usuli o'zining muammolari va kamchiliklariga ega. Xalqaro tijorat arbitraji- xalqaro nizolarni hal qilishning nisbatan samaraliroq usuli ekanligiga esa shubhamiz yo'q. Muammolar va axloqiy mulohazalar saqlanib qolsa-da, nizolarni hal qilishni o'zgartirish uchun vositachilik salohiyati shubhasizdir. Biz oldinga siljigan sari, xalqaro arbitrajga oid huquqiy nizolarni hal etishning o'ziga xos shakli uchun xabardorlik, tushunish va minnatdorchilikni kuchaytirish, yanada uyg'un va adolatli jamiyatga yo'l ochadi. Shunday ekan, xalqaro arbitrajning maqsadi turli mamlakatlar va madaniyatlarga mansub kishilarga o'zlarining nizolarini barcha taraflarda nizolarni hal qilishning xususiy tizimi umumiy adolatga xizmat qiladi degan hisni qoldirish yo'li bilan hal qilishga imkon berishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Margaret L.Mozes
2. Nazarov X.N Robotlar va robotexnik tizimlar.
3. Angeles J. Fundamentals of Robotic Mechanical Systems Theory, Methods and algorithms.
4. Doktor Beda Vortmann, Arbitraj sudlari tomonidan qonun tanlovi: Amaldagi Konflikt tizimining tizimi, 14 Arb. Int. 97, 101 (1998).
5. Mas., Trans-Lex Principles, manba at www.trans-lex.org/principles.
6. Kurfess T. Robotics and automation handbook. CRC Press LLC, 2005-519 p